

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Х.А.Абдурасулов	
Экономическая история Туркестана в "Большой игре" Питера Хопкирка	338
Sh.S.Shodiyeva	
Afg'oniston matbuotining Buxoro amirligi hududiga tarqalishi tarixiga doir.....	343
Sh.M.Abdusatorov	
Gastroturizm sohasini rivojlantirishning ba'zi nazariy masalalari.....	348
O.B.Nizomiddinov	
XX asrning 20-yillarida Farg'ona viloyatida ta'lim tizimi (Farg'ona viloyat davlat arxividagi hujjatlar misolida)	353
G'.A.Raxmonov	
Farg'ona vodiysida suv xavfsizligi borasidagi yondashuvlar	358
M.Y.Umarova	
Temuriy Malika Gavharshodbegim tug'ilgan oila va uning Amir Temur davridagi hayoti	361
S.B.Yuldashev	
The Faragina – a regular military structure in the Abbasid's army	366
X.X.Mamajonov	
Turk tarixshunosligida Amir Temur tarixining o'rganilishi va rivojlanish bosqichlari.....	373

ADABIYOTSHUNOSLIK

D.Sh.Kodirova	
O'zbek tili konchilik terminlarining terminografiya talablari asosida terminologik lug'atlarga kiritilishi	377
N.T.Zaylobova	
Muloqot xulqining oliy ko'rinishi	384
D.O.Xamidova	
Luqmon Bo'rixonning "jaziramadagi odamlar" romanida ruhiyat	389
A.N.Nasirov	
Xarakter evolyutsiyasining ruhiy-psixologik asosi	396

TILSHUNOSLIK

Ф.Ш.Алимов, Р.А.Фахрутдинова	
Лингвистические факторы формирования письменной речи в условиях цифровизации.....	402
Талантбек кызы Альбина, К.С.Шакиров, Э.И.Ибрагимова	
Формирование информационно-коммуникационные готовности у педагогов дошкольного образования в условиях непрерывного профессионального образования	408
O.Q.Sobirov, Sh.I.Shokirov	
Ingliz tilida qurilish terminlarini semantik xususiyatlari.....	417
D.A.Ganiyeva	
To'liqsiz va bog'lama fe'llarda sinkretizm va polifunksionallik.....	422
A.M.Mamarasulov	
Leksik sistemaga onomasiologik yondashuv.....	426
N.Xamidov	
Turli tizimli tillardagi antroponimlarda erkalash-kichraytirish ma'nolarining ifodalanishi	432
С.Э.Саидова	
Мулоҳизаҳо оиди лингвистикаи ареалӣ дар мисоли шеваҳои аҳолии сурхондарёи шарқӣ.....	437
Г.М.Мансурова	
Проблемы понимания на слух у студентов технических вузов	441
Ф.А.Темирова	
Методологический анализ подходов к составлению идиоматического словаря на примере HSG: сравнение, особенности и рекомендации	445
Ш.М.Султонова, Г.Ф.Нишонова	
Теоретические предпосылки изучения антропонимов в переводческом аспекте.....	449

TEMURIY MALIKA GAVHARSHODBEGIM TUG'ILGAN OILA VA UNING AMIR TEMUR DAVRIDAGI HAYOTI**ТЕМУРИДСКАЯ ПРИНЦЕССА ГАУХАРШАДБЕГИМ ЕЕ СЕМЬЯ И ЖИЗНЬ ВО ВРЕМЯ ПРАВЛЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА****TEMURID PRINCESS GAUHARSHADBEGIM FAMILY AND HER LIFE DURING THE REIGN OF AMIR TEMUR****Umarova Musharraf Yunusaliyevna¹**¹Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada temuriy malikalardan biri Gavharshodbegim tavallud topgan oila, ushbu oilaning temuriylar davlatida tutgan o'rni, malikaning Amir Temur davridagi hayoti va faoliyati tarixiy manbalar asosida tadqiq etilgan bo'lib, tahlillar asosida masala yuzasidan dastlabki ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Аннотация

В данной статье на основе исторических источников анализируется роль семьи темуридской принцессы Гавхаршодбегим в составе государства Темуридов, а также жизнь и деятельность принцессы во времена Амира Темура.

Abstract

The article analyses on the basis of historical sources the role of the family of the Temurid princess Gavkharshodbegim in the Temurid state, as well as the life and activities of the princesses during the time of Amir Temur.

Kalit so'zlar: Mirzo Ulug'bek, Gavharshodbegim, T.Fayziyev, temuriy malikalar, G'iyosiddin Tarxon, Shohruh Mirzo, Qushlik.

Ключевые слова: Мирзо Улугбек, Гавхаршодбегим, Т.Файзиев, тимуридские принцессы, Гиёсиддин Тархан, Шахрух Мирзо, Кушлик.

Key words: Mirzo Ulug'bek, Gavharshodbegim, T.Fayziyev, Timurid princesses, Ghiyosiddin Tarkhan, Shahrukh Mirzo, Kushlik.

KIRISH

Gavharshodbegim temuriylar sulolasi tarixida muhim o'rin tutgan malikalardan biridir. Uning temuriylar davri siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga ta'siri Mirzo Shohruh va uning vorislari davrida yaqqol sezilgan edi. Mirzo Shohruhning birinchi xonimi bo'lgan Gavharshodbegim hukmdorning uch o'g'lini onasi sifatida ham katta ta'sirga ega edi. Bu ta'sirning ildizlari Gavharshodbegim oilasining Amir Temur davridagi obro'siga, malikaning otasi va aka-ukalarining Sohibqiron davridagi mavqeyiga borib taqalardi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mirzo Ulug'bekdek allomani dunyoga keltirgan Gavharshodbegim nomi yurtimizda e'zozlanib kelinmoqda. Uning ezgu ishlari haqida B.Ahmedov, A.Ahmedov, T. Fayzievlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan [5, 6, 7, 8]. Ayniqsa, Turg'un Fayziyevning temuriy malikalar haqidagi risolasi jiddiy tadqiqotlardan biridir. Ushbu ilmiy tadqiqotlarda Gavharshodbegimning hayoti va faoliyati, uning temuriylar davri siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga ta'siri haqida tarixiy manbalar asosida bir qator fikrlar bildirilgan. Ammo ularda ham Gavharshodbegim oilasining kelib chiqish ildizlari, uning Amir Temur davridagi hayoti va faoliyati yoritilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Gavharshodbegim Chig'atoy ulusining obro'li beklaridan biri G'iyosiddin tarxonning qizi edi. G'iyosiddin Tarxon haqida tarixiy manbalardagi ma'lumotlar ko'p emas. Tarixchi Turg'un Fayziyev o'zining "Temuriylar shajarasi" [1: 300] kitobida G'iyosiddin Tarxonning bobolaridan biri Kushluk ismli shaxs Chingizxon qo'shinlari safida xizmat qilganligini, janglarning birida Chingizxonni o'limdan saqlab qolganligini hikoya qiluvchi rivoyatlar borligini qayd etgan. Ushbu rivoyat Chingizylar davrida mashhur bo'lganligi uchun ham uning avlodlari Chingizxon davrida beri tarxon unvoniga ega bo'lgan va bu unvonning imtiyozlaridan foydalanib kelgan. Bu haqida Sharafiddin Ali Yazdiy quyidagicha hikoya qiladi: "Tonglasi hazrat sohibqiron asirlarni quymakka

farmonladi, va andin ko'chub, Xorazm sori mutavajjih bo'ldi. Va Ko'cha Maliknikim, – xandaq ichiga kirmaydur edi, yasoq tayog'i urub, eshak quyrug'iga bog'lab, Samarqandga yubordi. Va G'iyosiddin Tarxonkim, Qishliq naslidin erdi va Chingizxon atolarini tarxon qilib erdi va Uljaytu ug'li Xoja Yusuf O'ljaytu ikkalasini bahodurlar bilan ilgari yibardilar va alar Keray arig'ig'a ayog'i soridin, Dakalik otliq, bir bo'lak kishi bilan o'turub erdilar. Jumla etib, ot soldilar. Ammo hazrat sohibqironning bahodurlari g'olib bo'lub, qochurdilar va andin yurub, Xorazmning tegrasidagi viloyatlarni taladilar.”[2:74] Nizomiddin Shomiy esa G'iyosiddin tarxon Amir Temurning ushbu yurishida manglay safida qatnashganligini qayd etgan.[3:93]. Yuqoridagi ma'lumotlardan ham ko'rinadiki, Gavharshodbegimning otasi G'iyosiddin tarxon Amir Temurning dastlabki harbiy yurishlaridanoq ularda faol ishtirok etishni boshlagan va unga muhim topshiriqlar ham berilgan.

G'iyosiddin tarxon haqidagi navbatdagi ma'lumot 1377 yilga oid. Bu safar ham Amir Temur G'iyosiddin tarxon va yana bir necha nomdor amirlarga muhim topshiriq beradi. Unga ko'ra bu amirlar Amir Temur huzuriga yordam so'rab kelgan Jo'ji ulusining taxttalab shahzodalaridan biri To'xtamishni Sig'noq shahriga olib borishlari va uni xon sifatida taxtga o'tqazib qaytishlari lozim edi. “Hazrat sohibqiron Dashti Qipchoqdin yongondin so'ng O'rusxon o'g'li Temur Malik O'g'lon xon bo'ldi va cherik tortib, To'qtamish boshig'a keldi va urush qilg'ondin so'ng To'qtamish cheriki buzuldi. Va Tuqtamish ul (ot)nikim, hazrat sohibqiron berib erdi, minib qochti va ko'b mashaqqat ko'rg'ondin so'ng hazratqa yetti. Sohibqironning himmati aning ahvoliga tushub, aning yarog'ini qilib, ulug' beklardin Tuman Temur O'zbek va Baxti Xoja va Giyoyeiddin Tarxon va Yang'i Qavchin bularni To'qtamish bilan Sig'noqqa yibardikim, ani ul viloyatda xon qilg'aylar. Beklar aning bilan Sig'noqqa borib, To'qtamishni xonliq taxtig'a o'lturg'uzdilar va nakim rasm turur erdi, qildilar.” Bu ma'lumotning o'ziga xosligi shundagi unda G'iyosiddin tarxon ilk bora ulug' beklar qatorida sanalgan. Bu ham uning mavqeyi tez yuksalib borayotganligidan dalolat beradi. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida ham G'iyosiddin tarxonning ushbu vazifa bilan jo'natilganligi qayd etilgan.[3:104]

G'iyosiddin tarxon bilan bog'liq voqealar Amir Temurning Mo'g'uliston ustiga yurishlari bilan bog'liq. 1389-1390 yillarda Mo'g'uliston hukmdorlari To'xtamishxon bilan ittifoq bo'lib Movarounnahrda bostirib kirgan edilar. Amir Temur tomonidan Mo'g'ulistonga javob yurishi sifatida yuborilgan qo'shinning sarkardalari sifatida G'iyosiddin tarxon ham tilga olinadi. Ular Mo'g'ulistonning ichkari hududlariga kirib borib, mo'g'ul xoni Xizr xoja bilan sulh tuzib qaytganlar. Ammo bu sulh amir Temurga ma'qul kelmaganligi manbalarda hikoya qilinadi: “Hazrat sohibqiron To'qtamishqa mutavajjih bo'lg'onida Yodgor Barlos va Sulaymonshoh va Shamsuddin Abbas va G'iyosuddin tarxonni Turkistonda qo'yub erdi. To'qtamishxonni bosqanda, Mo'gulistong'a mutavajjih bo'lg'onda bu beklarg'a kishi yibarib erdikim, “Sizlar taqi Mo'gulistong'a kiringlar. Har yerdakim, mo'g'ul uchrasa o'ldurung va mollarini talanglar!” Alar hukmdin so'ng Mo'gulistong'a kirib, To'y Bug'a Shayxni ul sarhadda qo'ydilarkim, zirotat bila mashg'ul bo'lg'ay. Bu beklar Mo'gulistonga kirib, Urdiyondin o'tub, Ila suyidin kechib, Sutko'l va Chechaklikka yettilar. Andag'i el-ulusni talab, ko'b mol oldilar va andin Qoz ustida borib, har yerdakim muxoliflardin topar erdilar, o'ldurub, mollarini olib yurur erdilar. Va bulg'achi va saluchi elini ul yozida istar erdilar, Mulzuddin o'tub Xizr Xoja O'g'lonkim, Mug'ulistonning xoni erdi, alarg'a uchradi va alar bila cherik ko'b erdi, aning bila urushmoqni maslahat ko'rmadilar, va qaytmoqni ham maslahat ko'rmadilar. Hazrat sohibqiron Noyri Ko'talidin o'tub Qarotoshg'acha dushmanning keynida surdi. Zaruratdin otlardin tushub, jilovni bellariga birkirib, dushman o'truvsiga o'turub, o'q otaboshladilar. Va ikki kechakunduz urushub alarni qo'yamadilarkim, ilgari kela olg'aylar. Har nechakim ko'plik erdilar va o'zga beklarkim, Jeta beklari erdi, bu bahodurlarg'a hamla qilib urushtilar, hech ish qilaolmadilar. Beklar Xizr Xoja O'g'lon bilan ont ichib yarashtilar. Va Yulduz mavzi'i sorikim, hazrat sohibqironning muqarrar qilgon bo'ljar yeri ul erdi, bordilar. Shoh Malik Tarxon ul urushdin qochib, o'zini biyobong'a solib Kaytuv mavze'ida hazratqa yetti va beklarning qissasini va Xizr Xoja O'g'long'a uchrag'onlarini arz qildi. Hazrat bu so'zni eshitib, yeldek ul sori mutavajjih bo'ldi va Sulton Mahmudxonning tumonig'a yetib, Ko'nguzdin o'tub, lulduz mavze'ida yetti. Amir Yodgor Barlos va Sulaymonshoh va Shamsuddin Abbas va G'iyosuddin Tarxonki, Xizr Xoja O'g'lon (bila) yarashib, qaytib, qochib kelur erdilar,”[2:126]. Nizomiddin Shomiy ham Amir Temurning bu yurishida G'iyosiddin tarxonning faol ishtirok etganligini ta'kidlagan. Yazdiydan farqli ravishda Amir Temur G'iyosiddin tarxon va boshqa amirlarga Mo'g'uliston hududida dehqonchilikni yo'lga qo'yishni

TARIX

topshirganligi ham qayd etilgan[3:126]. G'iyosiddin tarxonning faoliyatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, u faoliyatining asosiy qismini Movarounnahrning shimoliy chegaralarida olib borganligini, ko'proq Amir Temurning Dashti Qipchoq va Mo'g'ulistondagi harbiy yurishlarida qatnashgan.

G'iyosiddin tarxonning tarixini kuzatish jarayonida qiziqarli ma'lumotga ega bo'ldik. Sharofuddin Ali Yazdiyning yozishicha Amir Temur G'iyosiddin tarxonning ikki qizini o'zining ikki nabirasiga olib bergan. Bu voqea 1392-yili bo'lib o'tgan. Bu uning Amir Temur oldida katta hurmatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. "Hazrat sohibqiron ayshu shod komi bila amirzoda Pir Muhammad Umarshayx va amirzoda Rustamkim, inisi erdi, Giyosuddin Tarxonning ikki qizini bularga berdi. Va amirzoda Abo Bakrkim, mirzo Mironshohning o'gli erdi, amir Sayfuddin qizini shar'i mahhara yo'suni bilan berdilar. Bari yeru ko'k muborakbod deb, shodliq qildilar"[2:142].

Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, G'iyosiddin tarxonning o'g'illari ham Amir Temur qo'shinida xizmat qilganlar. Ularning Shohrux mirzo jasorat ko'rsatgan 1393-yili bo'lib o'tgan Shoh Mansur bilan Sheroz jangda Amir Temurning oldidagi safda, uning shaxsiy qo'shini safida jang qilganligi manbalarda keng yoritilgan: "Mubashshir Bahodur va o'zga beklar amirzoda bilan dushmanning keynida surdilar. Va amirzoda Pir Muhammad Jahongir yaag'ining so'l qo'ldagi turg'on kishisini ko'tarib qovlab yuridi. Va shahzoda Shohrux turub urushub erdi. Hazratning qochqon cheriki yana qaytib jam' bo'ldilar. Jalol Hamid va Pirim So'fiy, Yusuf So'fiyning o'gli va G'iyosuddin Tarxonning o'g'lonlari hazrat qoshida bahodurluq ko'rsatur erdilar va yaagi cherikini o'q zarbi bilan qaytarur erdilar. Va Allohdod qo'shunim, vafo bila mashhur edilar va Shayx Nuriddin qo'shuni va qo'shun bo'yi hazorai xossakim, olarni qavchin der edilar va alar g'o'l edilar; yana jam' bo'lub, g'o'lni yasab turdilar. Va Bahromning qo'shuni erlik ko'rsatib yerlardin tebranmadilar. Va amirzoda Shohrux o'n yetti yeshida erdikim, ul urush voqi' bo'ldi va shahzoda kichik yoshi bila Shoh Mansur bilan urushub, ani surub, Shoh Mansurni tushurdilar va boshini kesib, shahzoda Shohrux hazrat sohibqirong'a kelturub yukunub, boshni tashladi va fath bo'lg'on uchun muborakbod dedi"[2:153].

Amir Temur 1397-yili Xuroson mulkini boshqarishni o'zining kenja o'g'li Shohrux mirzoga topshirdi. Shohruxga xizmat qilish uchun uning xizmatiga ajratilgan amirlar orasida esa G'iyosiddin tarxonning ikki o'g'li ham bor edi. Shohrux mirzo xizmati o'z qayinog'alarining xizmatga tayinlanishi orqali Amir Temur o'z o'g'lini unga sodiq va ishonchli amirlar bilan ta'minlashni istagan bo'lishi mumkin: "Sohibqironi mamoliksitong'a bovujud ulkim, o'g'lon-ushoqlari ko'b erdi har biri bir viloyatda podshoh erdi. Ammo hazrat sohibqiron davlat nishonasini shahzodi Shohruxdin zohir ko'rir erdi. Lojurma, bu jihatdin ra'yi mamlakatoroyi andoq iqtizo qildikim, Xuroson viloyatikim, to'rtinchi iqlim turur va ma'mura olamning o'rtasi ul turur va holokim tirik turur, bu viloyatni shahzodag'a bergay. Ul mahaldakim, Bog'i Shimolda to'ylar qilib, farog'at bila o'turub erdi, Xuroson va Seiston va Mozandaron va Ray Feruzko'hg'acha shahzodai nekbaxt shahzoda Shohruxqa berdi. Va ulug' beklardin Sulaymonshohbek va amir Mizrob Jaku va Sayyid Xoja ibn Shayx Ali Bahodur va Abdussamad Hoji Sayfuddin va Hasan Jondor va Malakat va uning o'g'li Jahonmalik va Pir Muhammad Fo'lod va Giyosiddin Tarxonning o'g'ullaridin Ali Tarxon va Hasan So'fiy va qavchinlirdin To'ploq va Kepakchi (Yurtchi) va Tag'ay Mergan va O'lja Bug'ai Majalkachi va Shayx Ali va Mirak va g'ayruhum. Bu beklarni xona kuchlari bila shahzodag'a tobshurdi. Va o'zga beklardin har biridin yo o'g'lini, yo inisini shahzodaning mulozimati'g'a tobshurdi".

Amir Temur 1397-yili Mo'g'uliston xoni Xizrrojaxonning o'g'li Sha'mi Jahonni o'z yurtiga ketishiga ruxsat berar ekan, unga qo'shib o'zining ishonchli amirlaridan biri G'iyosiddin tarxonni ham qo'shib yuboradi. Unga elchi sifatida topshirilgan vazifalardan biri Mo'g'uliston xoni Xizrrojaxonning qizini Amir Temurga unashtirish edi. Amir Temur bu bilan Mo'g'ulistondagi o'z mavqeini yanada mustahkamlashni nazarda tutayotgan edi: "Hazrat sohibqironga kadxudoliq bila ko'b mayli bor erdi va yana shahzodalarga ham mayli bu erdikim, alarni mujarrad qo'ymag'ay. Bas, Sham'i Jahonkim, Xizr Xojaxonning o'g'li erdi, podshohona xil'atlar kiydurub Samarqanddin atosi qoshig'akim, Mo'g'ulistonda erdi, yibardi, to hazrat sohibqiron uchun singlisini atosidin tilab yibargay. Va G'iyosuddin Tarxonni ham bu muhim (ish) uchun ko'b peshkashlar bila raxt va qumosh va otlar podshohona yarog' bila Sham'i Jahong'a qo'shub yibardi va o'zi Konigil murg'zorida o'lturdi. Va ul mahalda mahdi a'lo Malikat og'o Hirotdin keldi va ko'b peshkashlar kelturub tortti [2:189]". Xondamir G'iyosiddin tarxon Mo'g'uliston elchiligidan o'ziga topshirilgan

vazifani uddalab kelganligi haqida quyidagicha hikoya qiladi: “800-yil rabiulavvalning birinchisi payshanba kunida Amir G‘iyosiddin Tarxon Mo‘g‘ulistondan qaytib, Xizr Xoja O‘g‘lonning qizini humoyun o‘rduga olib keldi. Uning ismi Tukul Xonim bo‘lib, uni mukammal zeb-ziyatga va xashamatga o‘rangan holda ihotalangan maydondan olib chiqib keldilar”[4:169].

Mo‘g‘uliston safaridan qaytib kelgan G‘iyosiddin tarxon amir Temurning Hindiston yurishida ham faol ishtirok etadi. Eng asosiy janglarda qatnashgan amirlar qatorida uning nomi ko‘p bora tilga olingan [2:195, 204, 207]. Misr sultoni bo‘lib o‘tgan jangda esa G‘iyosiddin tarxon boshchiligidagi qo‘shin Amir Temur lashkarining o‘ng qanotida jangga kiradi[2: 241].

Yuqorida G‘iyosiddin tarxonning ikki o‘g‘li Mirzo Shohrux xizmatiga berilganligini ta‘kidlagan edik. Sharofuddin Ali Yazdiy uning yana bir o‘g‘li nomini keltiradi. Idiku nomli G‘iyosiddin tarxonning o‘g‘li Amir Temur Gurjistonda turgan vaqtda, ya‘ni, 1401-yili Kermondan kelib ko‘rinish beradi va ko‘p peshkashlar topshiradi [2:250]. Bundan kelib chiqadiki, amir Idiku ibn G‘iyosiddin tarxon Kermon viloyatida xizmat qilgan yoki o‘sha viloyatni nazoratdan o‘tkazish uchun yuborilgan va u nazoratni tugatib kelib, hisobot bergan.

G‘iyosiddin tarxonning nomi Sharofuddin Ali Yazdiy tomonidan oxirgi marta Misr sultoni bilan bo‘lib o‘tgan Damashq yaqinidagi jang munosabati bilan tilga olingan edi. “Zafarnoma”da undan keyingi voqealar bayonida G‘iyosiddin tarxon nomi qayd etilmaydi.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida esa G‘iyosiddin tarxonning nomi 1398-1399 yillardagi Hindiston yurishi davomida tilga olinadi. Undan keyingi harbiy yurishlarda mazkur amir haqida so‘z yuritilmagan.

1388-yili Amir Temur o‘zining ikki nabirasi va bir o‘g‘lini uylantiradi. Marhum shahzoda Mirzo Jahongirning o‘g‘illari Mirzo Muhammad Sulton va Mirzo PirMuhammad hamda Sohibqironning kichik o‘g‘li Shohrux mirzolar to‘yi bo‘lib o‘tadi. Bu vaqtda Mirzo Muhamad Sulton va Mirzo PirMuhammad 12, Mirzo Shohruh esa 11 yoshda edi. Ularning yoshidan kelib chiqadigan bo‘lsak kelinlar ham 11-10 yoshlarda bo‘lganligini taxmin qilish mumkin. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida kelinlar nomi keltirilmagan. “Andin so‘ng sohibqironning, — deb yozadi Yazdiy, — muborak ko‘ngliga kechtidikim, shahzodalarkim, bo‘yi yetilib tururlar, alarni evlandurgay. To‘y asbobig‘a mashg‘ul bo‘lub, shaharni oyin bog‘ladilar. Amirzoda Muhammad Sulton va amirzoda Pir Muhammadkim, ikkalasi ag‘o-ini erdilar va amirzoda Shohruxni har biriga bir huri najod qilni shar‘i mutahhara yo‘sunu bila berdi va Bog‘i bihishtda to‘y qildi. Va bu tuy bir sori bo‘lg‘ondin so‘ng hazrat sohibqiron cherikka ijozat berdikim, «Har kishi o‘z viloyatlarig‘a borib bir necha kun farog‘at bo‘lsunlar”. [2:121] Nizomiddin Shomiy qalamiga mansub “Zafarnoma”da esa bu to‘y haqida so‘z yuritilmagan.

Shohrux mirzoning birinchi xotini aynan Gavharshodbegim bo‘lganligidan kelib chiqib va keyingi davrlarda voqealarda Mirzo Ulug‘bekning onasi sifatida Gavharshodbegim ekanligi qayd etilganligidan kelib chiqib, bu kelin u ekanligini ta‘kidlashimiz mumkin. Oradan 6 yil o‘tgach 1394 yil 22 mart kuni Gavharshodbegim o‘g‘il farzandli bo‘ladi. Bu haqida ham Sharofuddin ali Yazdiy shunday hikoya qilgan: “Jumada al-avval oyi o‘n to‘qquzida, yakshanba kunida tarix yetti yuz to‘qson oltida, it yilida (22.03.1394), Sultoniya qala’sida Shohrux mirzoning xotunidan kun kibi bir o‘gul tug‘di. Munajjimlar va donolar yig‘ilib, toli’ mavludini ehtiyot qilib ko‘rdilar. Bu xabarnikim, hazrat sohibqiron eshitti, asru ko‘p sevunub, qahr va gazabidin taskin tobt. Shukrona uchun Mardin qal‘asidaki elni bag‘ishlab gunohlaridin kechti. Va ul viloyatni Sulton Isaning inisi Sulton Solihqa berdi; nishon bitib, ol tamga bosib berdi[2:165-166]”. Lekin Gavharshodbegimning farzandini tarbiyalash Mahdi ulyo Saroymulxonimga topshirildi.

1398-yili Gavharshodbegim yana bir o‘g‘il tug‘adi va unga G‘iyosiddin Boysunqur nomi beriladi. Bu shahzodani tarbiyalash Gavharshodbegimning o‘zini ixtiyorida qolgan bo‘lishi mumkin. Chunki manbalarda Gavharshodbegimning ushbu farzandini Amir Temurning xotinlaridan birortasiga tarbiyalash uchun berilganligi xususida ma‘lumot uchratmadik. Qolaversa, Boysunqur mirzo Gavharshodbegimning juda sevimli farzandi bo‘lganligi, unga malika alohida mehr-muhabbat bilan qaraganligi xususida ko‘p tarixiy manbalar hikoya qilganligi ham shundan dalolat beradi.

XULOSA

Umuman olganda shuni alohida qayd etib o‘tish mumkinki, Gavharshodbegimning nomi Amir Temur davriga oid tarixiy manbalarda deyarli tilga olinmaydi. Har holda bir Sharofuddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanzilarning asarlarida Gavharshodbegimning nomini

TARIX

uchratmadik. Bu esa uning Amir Temurning boshqa bir kelini Xonzodabegim kabi nufuzga ega bo'lmaganligidan dalolat beradi. Tarixiy manbalarda amir Temurning kelinlaridan Xonzodabegimga katta e'tibor qaratilgan. Bu uning ona tomondan Oltin O'rdaning hukmdori O'zbekxonga borib taqalishi bilan bog'lanadi. Xonzodabegimning biror bir hududga borishi yoki kelishi, Amir Temur bilan ko'rishishi yoki uning farzand ko'rganligi kabi voqealar keng yoritilgan. Uning Jahongir mirzo bilan to'yi ham tarixiy manbalarda batafsil hikoya qilingan. Xonzodabegimning Jahongir mirzo vafotidan so'ng Mirzo Mironshohga turmushga berilganligi ham tarixiy manbalardan o'rin olgan. Bular barchasi Xonzodabegimning Amir Temur saroyida obro'yini va unga bo'lgan e'tiborning behad yuksak bo'lganligini bildiradi. Gavharshodbegim esa bu kabi obro' va e'tiborga ega bo'lmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Т.: Ёзувчи, 1995.
2. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков.– Т.: Шарқ, 1997.
3. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А.Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ.Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О.Бўриев.– Т.: Ўзбекистон, 1996.
4. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон, 2013.
5. Аҳмедов А. Улуғбек (ҳаёти ва фаолияти) – Т.: Фан, 1991.
6. Аҳмедов А. Улуғбек Муҳаммад Тарағай – Т.: А. Қодирий, 1994.
7. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар – Т.: Ўқитувчи, 1993.
8. Аҳмедов Б. Улуғбек – Т.: Ёш гвардия, 1989.